

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA'NAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mahmudov Murodjon Alisher o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi.

Mahmudovmurod107@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17395950>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi axborot xavfsizligining huquqiy masalalari, davlat siri haqida tushunchalar va axborotni himoyalashning asosiy sababari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi doirasidagi qabul qilingan qonun hujjatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot himoyasi, davlat siri, qonunchilik, maxfiylashtirish, konstitutsiya.

Аннотация. В диссертации рассматриваются правовые вопросы информационной безопасности, понятия государственных секретов и основные основания защиты информации. Также приводятся примеры принятых законодательных актов Республики Узбекистан в области информационной безопасности.

Ключевые слова: защита информации, государственные секреты, законодательство, конфиденциальность, конституция.

Abstract. This dissertation examines legal issues of information security, the concept of state secrets, and the fundamental principles of information protection. Examples of legislative acts adopted by the Republic of Uzbekistan in the area of information security are also provided.

Keywords: information security, state secrets, legislation, confidentiality, constitution.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, axborotning maxfiylik darajasi har doim insoniyat taraqqiyotining muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Dastlabki jamiyatlardan boshlab ma'lumotlar ma'lum joylarda, xususan, kutubxona, devonxona, saroylarda qat'iy qo'riqlangan. Bu nafaqat ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlash uchun, balki davlat sirlarini dushman kuchlardan himoya qilish, madaniy merosni yo'q qilinishdan asrash maqsadida amalga oshirilgan. Ayrim Yevropa davlatlarida hatto qirollik oilasi a'zolarining sog'liq holati, kasallik tarixlari ham sir tutilgan. Bunday amaliyot shuni ko'rsatadiki, axborot har doim xavfsizlik ramzi sifatida qadrlangan.

Bugungi davrda esa texnologik taraqqiyot natijasida axborotlar bazasi mislsiz darajada kengaydi. Davlat idoralarining faoliyati jamoatchilikka ochiq ko'rsatiladigan tizimlarga o'tkazildi. Fuqarolar endilikda qonun-qoidalarga amal qilgan holda axborotlarni ishlab chiqish, saqlash va uzatish huquqiga egadirlar. Biroq bu ochiqlik bilan birga xavflarni ham olib keldi. Chunki axborotdan noto'g'ri yoki noqonuniy yo'lda foydalanish holatlari tobora ko'paymoqda. Hozirgi kunda xakerlar nafaqat shaxsiy, balki davlatga tegishli bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni ham o'g'irlab, ularni o'z manfaatlari yo'lida talqin etishmoqda. Bu esa jamiyat barqarorligiga, davlat boshqaruviga va iqtisodiy tizimga bevosita xavf tug'diradi. Jumladan, ular tomonidan fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlanib, bank kartalaridan mablag'lar yechib olinmoqda. Hattoki ular ijtimoiy tarmoq orqali soxta havolalar yuborib ham tovlamachilik yo'llari bilan shug'ullanishmoqda. Axborotlar bazasi katta bo'lganligi bois ham davlatlar buni nazorat qilishlari qiyin kechmoqda. Shu bois, dunyoda axborotni himoyalash, uning xavfsizligini ta'minlash masalasi hozirgi davrda nafaqat texnik, balki ijtimoiy zarurat sifatida qaralmoqda.

Ma'lumotlarning xavfsizlik darajasi o'ta muhim hisoblanadi. Ularning tarqalishi natijasida tegishli idora yoki kompaniyalarning siri bilan birga davlat tashkilotlarining ham bazalariga putur yetadi. Shuning uchun ham axborot xavfsizligi darajasini yuqori o'ringa qo'yish zarur.

Axborot xavfsizligi (inglizcha: Information security) — axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal kontseptsiya ma'lumotlar qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar (masalan, elektron yoki jismoniy) amal qiladi¹. [1] [6] Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning konfidentsialligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli qo'llagan holda tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, davlat siri tushunchasi ham axborot xavfsizligi tizimining ajralmas qismidir. **Davlat siri** — oshkor etilishi taqiqlangan, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar. Ular maxsus ro'yxatlar bilan belgilab qo'yiladi² [2,6]. Oshkor etilishi natijasida davlatning mudofaa qobiliyatiga, xavfsizligiga, iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar hisoblanadi. Davlat sirlari jumlasiga kiritiladigan ma'lumotlar 4 ta sohaga bo'linadi³:

- **harbiy sohadagi davlat sirlari;**
- **tashqi siyosat va tashqi iqtisodiyot sohasidagi davlat sirlari;**
- **razvedka, kontrrazvedka, tezkor-qidiruv faoliyati va davlat xavfsizligiga doir davlat sirlari;**
- **iqtisodiyot, ta'lim, fan va texnika sohasidagi davlat sirlari.**

Shu o'rinda savol tug'iladi. Barcha sohadagi ma'lumotlar maxfiylashtiriladimi ?

O'zbekiston Respublikasi doirasida favqulodda vaziyatlar hamda fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga va xavfsizligiga tahdid soluvchi jarayon va ularning oqibatlaridan ogohlantirish, tabiiy ofatlar, ularning rasmiy prognozlari haqida ma'lumotlar; ekologiya, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy xizmatlarga doir ma'lumotlar va statistikalar, mavsumiy xavf tug'duruvchi va dunyo bo'yicha tarqalayotgan kasalliklardan ogohlantiruvchi ma'lumotlar, jinoyatchilik holati to'g'risidagi ma'lumotlar, O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, budjet parametrlari, inson huquq va erkinliklarining buzilishiga oid ma'lumotlar, davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunchilikning buzilishlari haqidagi ma'lumotlar, jahon yangiliklari sir saqlanmaydi va jamoatchilikni muntazam xabardor qilib borish mumkin bo'ladi.

Har bir tashkilotning o'z ichki ma'lumotlari shaxsiy va faqatgina kompaniyaning o'zigagina tegishli bo'lib, ruxsatlarsiz foydalanish, tarqatish, asossiz xabarlar tarqatish qat'iy man etiladi. **“Axborotning himoyasi”** – boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi,

¹ “Axborot xavfsizligi” tushunchasi – Wikipediya.

² Davlat siri - Wikipediya

³ Davlat sirlari to'g'risida qonun qabul qilindi. Nimalar ko'zda tutilgan? – kun.uz sayti

foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi⁴.

AXBOROTNI HIMOYALASHNING ASOSIY MAQSADLARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- ✓ axborotning kelishuvsiz chiqib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi va soxtalashtirilishlarning oldini olish;
- ✓ shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bo'lgan xavf-xatarning oldini olish;
- ✓ axborotni yo'q qilish, o'zgartirish, soxtalashtirish, nusxa ko'chirish, to'siqlash buyicha ruxsat etilmagan xarakatlarning oldini olish;
- ✓ hujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning ko'rinishlarining oldini olish;
- ✓ axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va konfidentsialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion huquqlarini himoyalash;
- ✓ davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;
- ✓ axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llashda sub'ektlarning huquqlarini ta'minlash.

Mamlakatimizda axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning asosiy manbayi bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Davlat va jamiyat hayotining eng muhim va istiqbolga mo'ljallangan reja va oliy maqsadlari ham aynan asosiy qonunda belgilab qo'yiladi. Jumladan, axborot va u bilan bog'liq munosabatlar ham asosiy qonunimizning "Shaxsiy huquq va erkinliklar" bobida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-, 29-, 67-moddalaridagi normalar mamlakatimizdagi axborot sohasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi dastlabki bosh huquqiy manba – asos hisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 67-moddasini, ya'ni "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"⁵. [5] Ushbu norma orqali mamlakatimizda axborot bilan uzviy ravishda faoliyat olib boruvchi soha vakillarining va sektorlarning o'zlari yig'ayotgan, tarqatayotgan axborotlarining ishonchliligiga asoslanganligi, axborot va unga qo'yilgan talab va me'yorlarga rioya qilinganligi uchun bevosita ma'suldirlar. Ya'ni uzatilayotgan axborot haqiqatga to'g'ri kelishligi va chinligi uchun ommaviy axborot vositalari bevosita javobgardir.

Bundan tashqari konstitutsiyamizning 27-moddasidagi quyidagi normalar ham axborot xavfsizligini bevosita ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy norma hisoblanadi: "Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibidan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas". Yuqoridagi normalarning buzilishi oqibatlari esa belgilangan tartibda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Konstitutsiyamizdagi 29-moddada ham aynan shu munosabatlarning huquqiy tartibga solinganligini ko'rishimiz mumkin. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har

⁴ Usmonova Muniskhon (2020). The role of forensic psychiatric examination in invalidating an agreement entered into by a citizen who does not understand the significance of his actions or is unable to control them. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск), 146-152.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" 2020 yil. 12-bet.

kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan ahborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklovlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taaluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”⁶.

1993-yil 7-mayda qabul qilingan “Davlat sirlarini saqlash to'g'risida”gi⁷ qonunda ham axborotlarning, jumladan maxfiy hisoblanadigan axborot va sirlarning saqlanish tartibi belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunda ma'lumotlarning maxfiylik darajasini aniqlash va belgilash tartibi, O'zbekiston Respublikasida maxfiylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati, O'zbekiston Respublikasining alohida tartibga bo'ysunuvchi, alohida muhim va muayyan tartibga bo'ysunuvchi obyektlar ro'yxati, O'zbekiston Respublikasida maxfiylikni saqlash tartibini ta'minlashga doir chora tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalarni rivojlantiruvchi va to'ldiruvchi yana bir qancha qonun hujjatlarini ko'rishimiz mumkin. Ulardan yana biri “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin. Ushbu qonunga ko'ra axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash; axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish; axborotni yo'q qilish, to'sib qo'yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish; axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashi shart.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini tartibga soluvchi yana bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga 02.07.2019-yildagi “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunini⁸ ham ta'kidlab o'tish joiz. Shaxsga doir ma'lumotlar deganda jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot nazarda tutiladi.

Hukumat huzuridagi davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi. Shaxsga doir ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga bepul beriladi.

Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O'zbekiston” 2020 yil. 12-bet.

⁷ O'zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to'g'risida” gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, – 1993. – №5.

⁸ O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, – 03.07.2019-y. – №3363.

Mazkur qonundagi davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'yilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi va axborot resurslarining mulkdorlari va egalari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridan yuridik hamda jismoniy shaxslarning teng huquq asosida erkin tarzda foydalanishini ta'minlashi kerak, axborot resurslarini erkin foydalanish toifalariga kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda axborot resurslarining mulkdori tomonidan aniqlanadi deb belgilab qo'yilgan norma orqali mamlakatimizda axborotlarning turkumlanishiga guvoh bo'lamiz.

XULOSA

Zamon taraqqiy etgan sari jamiyatda axborotga bo'lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi axborotlar hajmining ham ortib borishiga xizmat qiladi. Bu kabi axborotlar ichida ma'lum ma'noda himoyani, maxfiylikni va sir saqlanishini talab etadiganlari ham bo'ladi, negaki, bu toifadagi ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, o'g'irlanishi yoki yo'q qilinishi, kiberhujumga uchrashi kabi holatlar davlat va fuqarolar, tashkilotlar uchun katta talafotlarni, moliyaviy yoki moddiy zararlarni olib kelishi mumkin. Shuning uchun buning oldini olish har bir tashkilot va fuqarolik jamiyatidan talab etiladi. Xushyorlik, ogohlik, tanqidiy tafakkur fikr yuritish, ishonuvchan bo'lmaslik bugungi kun zamon talabidir. Axborot xavfsizligi bo'yicha har bir rahbar va mutaxassislar tashkilot faoliyatini to'g'ri tashkil etish va tashkilotda yetarli darajada axborot xavfsizligini ta'minlashda amaliy chora va tadbirlarni ko'rishlari darkor.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Davlat sirlari to'g'risida qonun qabul qilindi. Nimalar ko'zda tutilgan? Kun.uz sayti <https://kun.uz/news/2025/01/08/davlat-sirlari-togrisida-qonun-qabul-qilindi-nimalar-kozda-tutilgan>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" 2020 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida" gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, – 1993. – №5.
4. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, – 03.077.2019-y. – №3363.
5. Usmonova Muniskhon (2020). The role of forensic psychiatric examination in invalidating an agreement entered into by a citizen who does not understand the significance of his actions or is unable to control them. Review of law sciences, 3. 146-152. <https://cyberleninka.ru>
6. Wikipediya ma'lumotlari